

## **BUGUNGI KUNDA UZLUKSIZ TA'LIMGA ZAMONAVIY YONDASHUV**

**Kamoliddin Zoirov,**

JDPI Tasviriy san'at va muxandislik  
grafikasi kafedrasi dotsenti, pedagogika  
fanlari nomzodi

**Annotatsiya:** Maqolada uzluksiz grafik ta'lim masalasida intensivlashtirishga zamonaviy yondashuv masalalari ko'rib chiqiladi. Muallif uzluksiz grafik ta'limni faollashtirishning asosiy yo'naliishlari, yo'llari va zamonaviy yondashuvlarini tavsiya qiladi.

**Kalit so'zlar:** intensivlashtirish, grafik ta'lim, kibernetik yondashuv, fan va taraqqiyoti texnikasi

Fan va texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish xodimlariga yuqori talablarni qo'ymoqdakim, ilmiy axborotlar oqimi tez o'sib va tezlik bilan eskirmoqda. Bu esa uzluksiz ta'lim tizimiga yuqori talblarni, ya'ni umumta'lim va kasbiy bilimlar nafaqat o'rta va oliy maktab, balki o'quv markazlari, malaka oshirish institutlari yoki induvidual dastur bo'yicha mustaqil ta'lim olish to'ldirish muhim kasb etadi.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimini asosiy o'zgartirish mexanizmining quyidagi yo'naliishlarini ko'rish mumkin:

**Birinchidan**, umumiyl ishlab chiqarish faoliyati ta'lim institutlarining zaruriy faoliyat tomoni bo'lishi;

**Ikkinchidan**, ta'lim har bir kishi uchun butun umr davomida bilim va malakalarni rivojlantirib borishni tizimli faoliyati sifatida namoyon qilishi zaruriyati bo'lishi;

**Uchinchidan**, ishlab chiqarish va ijodiy faoliyatning keng masshtabda namoyon bo'lishi;

**To'rtinchidan**, yosh avlodni tarbiyalash umumxalq ishi darajasiga ko'tarilganligi.

Prof. A.A.Abduqodirov ta'lim darajasini yuqori ko'arish zaruriyatining to'rt asosiy omili sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi, bular: fan va texnika axborotining uzluksiz o'sishi; xalq xo'jaligiga raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash talabining keskin oshishi; ta'lim oluvchilar sonining kengayishi; ta'lim muassasalarining zamonaviy kompyuter texnikasi bilan jixozlanishi.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonini jadallashtirish va takomillashtirishning asisy yo'naliishlarini quyidagicha hisoblash kerak:

-ta'lim jarayonini uning uch asosiy funksiyasi- ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarini kompleks amalga oshirish;

- darsning axborot sig‘imi uning mazmunini hammabopligrini saqlagan holda mumkin qadar zichlashtirish hisobiga oshirish;
- materiallarni o‘zlashtirish jarayonida umumlashtirish, yiriklashtirilgan bloklarda, ya’ni integratsiyalash asosida material uzatish;
- ta’lim mazmunida nazariyaning ahamiyatini oshirish;
- ta’limning qaerida samarador bo‘lsa o‘sha yerda deduktiv yondoshuvni kengaytirish;
- fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish;
- o‘qitish jarayonida algoritmik ko‘rsatmalilikni qo‘llash;
- kompyuter qurilmalaridan foydalanish;
- umumo‘quv malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish.

Uzluksiz ta’lim tizmida ta’lim jarayoni sifatini oshirish uchun o‘qituvchilar o‘quv jarayonini jadallashtirish lozim.

“Intensifikatsiya”- lotincha so‘z bo‘lib, “**intensio**” – zo‘riqish, kuchlanish, zo‘riqtirish orqali jarayonni samaradorlashtirish”dir. Ishlab chiqarishni jadallashtirish – “ilmiy texnika taraqqiyoti yutuqlari, mexnatni tashkil etishning ilg‘or usullaridan foydalanish, ishlab chiqarish va texnologik jarayonning samarador vositalarini qo‘llash asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish” dir. Bu termin tashkiliy, meterial-texnik va psixo-pedagogik xarakterdagи tadbirlar tizimi yordamida sotsial-iqtisodiy faoliyatda, sotsial-iqtisodiy jarayonda yuqori natijalarga erishishni ifodalaydi.

Rus olimi Yu.K.Babanskiy o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish yo‘llaridan biri o‘quv jarayonini jadallashtirish deb biladi. U ta’kidlaydiki, “....ta’limni jadallashtirish - har bir belgilangan vaqtda o‘qituvchi va o‘quvchilarining o‘quv mehnati samaradorligini oshirishdir”. Shuningdek, u ta’limni jadallashtirishning asosiy omillari sifatida o‘qitishning maqsadli yo‘nalishini oshirish, bilishga ishtiyoqni kuchaytirish, ta’lim mazmunining axborot sig‘imi oshirish, ta’limning faol metod va shakllarini qo‘llash, o‘quv amaliy harakatlarini oshirish, kompyuter va yangi texnik vositalardan foydalanish- deb biladi.

Akademik S.A.Arhangelskiy o‘quv-tarbiya jarayonini intensifikatsiyalashga qo‘yidagicha ta’rif beradi: “**O‘qitishning faollashtiruvchi vosita, shakl va metodlaridan foydalanish yo‘li bilan o‘quv-tarbiya jarayonini intensivlash ikki o‘zaro bog‘liq vazifani qo‘yadi: o‘qitish sifatini oshirish va bir vaqtda vaqt sarfini kamaytirish”**

Professor R.H.Jo‘raev kasb-hunar ta’limi tizimida o‘quvchilarining professional tayyorgarligini jadallashtirish muammosini tadqiq qilar ekan, u o‘z ilmiy tadqiqotida kasbiy o‘quv faoliyatini jadallashtirishning muhim omili- o‘quv malakalarini shakllantirish, o‘z-o‘zini nazorat qilishni rivojlantirish, o‘rganishga

sabab va kasbiy bilisha qiziqishni shakllantiruvchi jarayonlarni o‘z ichiga oluvchi ta’limni samaradorlashtirish deb hisoblaydi. Shuningdek, “kasbiy tayyorgarlikni jadallashtirish” tushunchasini – **ta’lim tizimida (xususan, hunar- texnika o‘quv yurtlarida) har bir o‘quvchini kasbiy malaka va ko‘nikmalarini, shaxsiy sifatlarini maksimal darajada shakllantirishdir** – deya aniqlashtiradi.

Professor A.A.Abduqodirov esa oliy pedagogik ta’lim tizimida fizika-matematika fanlari o‘qituvchilari tayyorlashni intensivlash muammosini tadqiq qilar ekan, o‘quv-tarbiya jarayoni mazmuni, metodlari va shakli har doim ham o‘qituvchi modeliga javob beravermaydi –deya ta’kidlaydi muallif. Bunday holda,- deb davom etadi u –o‘quv tarbiya jarayonini intensivlashga harakat qilmoq lozim. O‘quv tarbiya jarayonini intensivlashning asosiy omillari sifatida qo‘yidagilarni ko‘rsatadi: o‘qitish sifatini har xil yo‘nalishlarda oshirish; o‘rgatish motivlarini kuchaytirish; mazmunning ma’lumotlar sig‘imini kengaytirish; ta’limning faol shakl va metodlarini qo‘llash; -o‘rganuvchi harakatlari darajasini tezlashtirish; o‘rganuv mehnati malakasini rivojlantirish;

-to‘rt muloqotli rejimdagi (sust, faol, reaktiv va interaktiv) kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish.

Bu omillardan foydalanish o‘quv-tarbiya jarayonini intensifikatsiyalashda ularning psixologik-pedagogik va fiziologik jihatlarni o‘rganishga talab qiladi.

Bo‘lajak mutaxassislarning grafik tayyorgarligini intensifikatsiyaga didaktik, psixofiziologik, kibernetik va zamonaviy yondashuv- texnologik jihatlarni o‘z ichiga oluvchi *tizimli yondoshuv* nuqtai nazardan qaramoq lozim.

O‘quv-tarbiya jarayonini jadallashtirishga didaktik yondoshuv didaktik tamoyillarni, o‘quv faoliyatini asosiy jihatlarini, o‘qitish metodlarini, texnologiyalashtirilgan o‘qituv tizimini tuzish va qurish uchun o‘quv-tarbiya jarayonini intensivlashtiruvchi dastur va tizimlardan foydalanish mumkin.

O‘quv-tarbiya jarayonini jadallashtirishga *psixofiziologik yondoshuv* bo‘lajak mutaxassisning o‘quv axborotini o‘rganish uchun imkoniyatini aniqlashga imkon beradi. Bu yondashuv avtomatlashtirilgan o‘qitish tizimini qurish uchun o‘quv-tarbiya jarayonini intensivlashga prinsipial imkoniyat yaratadi.

O‘quv-tarbiya jarayonini jadallashtirishga kibernetik yondoshuv zamonaviy hisoblash texnikasidan foydalanib, bo‘lajak mutaxassislar tayyorgarligini intensivlashtiruvchi, umumiyl boshqaruv nazariyasini dinamik o‘zaro harakatini ta’minlovchi va avtomatlashtirilgan o‘yitish tizimi va kompyuterlarda o‘qitish dasturini qurish va yaratish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, o‘quv-tarbiya jarayonini jadallashtirish – bu o‘qitishning zamonaviy samarador shakl, usul va texnik vositalarini qo‘llash, xususan ta’limiy va axborot texnologiyasini qo‘llash asosida o‘quv mehnatini samarasini va ta’sirchanligini oshirishdir.

O‘quv-tarbiya jarayonini jadallashtirishga zamonaviy ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash asosida yondoshuv nisbatan yangi yo‘nalishdir. Bu yo‘nalish bo‘yicha bir qancha jumladan, psixologik (E.G‘oziev, T.A.Ilina, N.F.Talizina), pedagogik (N.X.avliyaqulov, V.Guziev, M.V.klarin, T.S.Nazarova, U.N.nishonaliev, M.Ochilov, J.G.Yo‘ldoshev, F.Yuzlikaev), uslubiy (V.P.bespalko, O‘.Q.Tolipov, N.Sayidaxmedov, L.golish va boshq.) tadqiqotlarda oliy va o‘rta maxsus kasb-xunar maktablarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, kompleks va tizimli yondashuv asosida ta’limni takomillashtirish yo‘llari ishlab chiqilgan.

Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning grafik tayyorgarligini ta’min etadigan o‘quv fani bu chizmachilikdir. Chizmachilik bo‘yicha yangi takomillashtirilgan o‘quv dasturi qabul qilinib, 2006-2007-o‘quv yildan boshlab, maktablarda o‘qitila boshlandi. Takomillashgan o‘quv dasturlarida o‘qitishning tuzilishi, mazmunini o‘zgartirish, g‘oyaviy-siyosiy saviyasini, politexnik-amaliy yo‘nalishini kuchaytirish nazarda tutilgan. Biroq, o‘tkazilgan kuzatishlar, suxbatlar takomillashgan dastur talablarini amalga oshirishda bir qator qiyinchiliklar va jiddiy kamchiliklar borligini ko‘rsatmoqda. Takomillashgan dastur asosida yaratilgan darslik mavjud emasligi, tegishli metodik tavsiyalar va qo‘llanmalarining yo‘qligini o‘qitish jarayonini talabdagidek tashkil etishda jiddiy qiyinchiliklar tug‘dirmoqda.

Chizmachilik o‘qitish metodikasida ham sezilarli o‘zgarishlar bo‘lmayotir. Darslar hamon eskicha, bir qolipda, o‘quvchilar passiv tinglovchilar bo‘lib o‘tiradigan vaziyatda o‘tmoqda. O‘qitishning o‘quvchilar aqliy faoliyatini va mustaqilligini oshirishga qaratilgan yangi shakl va voistalari dars jarayoniga sekinlik bilan joriy etilmoqda, ko‘pchilik o‘quvchilarning chizmachilikdan bilim va amaliy ko‘nikmalari bo‘s, ularda chizmachilikni o‘rganishga qiziqish kam. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o‘quv-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirishning muhim shartlaridan biri **o‘qitish jarayonini jadallashtirish** ekanligi ko‘rsatilgan. Bu dars jarayoniga pedagogika va psixologiya fanlari erishgan yutuqlarni, novator o‘qituvchilar tajribalarini keng joriy qilgan holda o‘qituvchining ham o‘quvchining ham darsdagi mexnat unumdarligini oshirishdan iboratdir.

Binobarin, yuqorida ta’kidlanganidek, grafik ta’lim jarayonini intensifikasiyalash – bu grafika fanlarini o‘qitishning zamonaviy samarasini va ta’sirchanligini oshirishdir.

Grafik ta’lim jarayonini jadallashtirish yo‘llari ko‘p qirralidir.

Ular quyidagilardir:

- Ta’lim oluvchilarda grafik faoliyatiga qiziqish, o‘quv ishiga javobgarlik xissini uyg‘otish;

- O‘qitish jarayonini ratsional tashkil etish va o‘quv materialini zamonaviy ishlab chikarishning ilg‘or sohalari talablari asosida didaktik qayta qurish;
- O‘quv ishini tashkil etishning samarador shakl va uslublari, xususan zamonaviy ta’limiy va axborot (kompbterli) texnologiyalardan foydalanish. Tadqiqotchi B.J.Xo‘jaev grafik ta’lim jarayonini jadallashtirishning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi:
  - 1.Grafik ta’limni zamonaviy ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlari talablari asosiga yo‘naltirish;
  - 2.O‘qituvchining ta’limni intensifikatsiyalash g‘oyasi va uning pedagogik mahoratini yuqori darajada ko‘tarish;
  3. Asosiy ta’lim maqsadiga intilgan holda o‘qituvchi va o‘quvchilarni grafik bilim va malakalarni egallashning yirik jamoaviy va shaxsiy ahamiyatini tushuntirish;
  4. Grafik ta’limni ratsional rejorashtirish;
  - 5.Grafik ta’limni texnik va boshqa zamonaviy vositalar, interaktiv metodlar, tezkor nazorat va stimullash metodlari bilan boyitish;
  - 6.Grafik ta’lim jarayonini optimallashtirish va o‘qituvchi va o‘quvchining ortiqcha kuchlanishini “qirqish” usulini qo‘llash.

Shunday qilib, o‘quv tarbiya jarayonini jadallashtirish muhimligi shundaki, u ta’lim uchun vaqt resursidan unumli foydalangan holda ta’lim oluvchini shaxsini, ichki extiyojini qondirish va qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Abduqodirov A.ATeoriya i praktika intensifikatsii podgotovki uchiteley fiziko-matematicheskiy displin. Toshkent “Fan” 1991
- 2.Babanskiy Yu. K.Intensifikatsiya protsessa obucheniya. Moskva:”Znanie”.1987.